



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI BUYRUG'I

2022-yil "28"fevral

7 A/F-sonli

Turizm va madaniy meros vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldag'i "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-75-son Farmoni hamda 2022-yil 18-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-135-sonli Qaroriga asosan Turizm va sport vazirligi negizida Turizm va madaniy meros vazirligi tashkil etilganligi munosabati bilan,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldag'i "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-75-son Farmoni bilan Turizm va sport vazirligi negizida Turizm va madaniy meros vazirligining (keyingi o'rnlarda - vazirlik) Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari (keyingi o'rnlarda – bosh boshqarmalar) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlikning:

- Andijon, Navoiy, Namangan va Sirdaryo viloyatlari bosh boshqarmalari tuzilmasi **1- ilovaga**;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Jizzax, Qashqdaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlari bosh boshqarmalarining tuzilmasi **1a - ilovaga**;

- Buxoro, Samarqand, Toshkent va Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahar bosh boshqarmalari tuzilmasi **1b- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirligi va bosh boshqarmalari boshqaruv xodimlarining umumiyl cheklangan soni – **386 nafar** etib belgilansin;

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi va bosh boshqarmalar tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm va sport vazirligi,

viloyatlar va Toshkent shahar turizm va sport bosh boshqarmalari huquqlari, majburiyatlari va shartnomalarining turizm qismi bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi belgilansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinnbosarlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vaziri, bosh boshqarma boshliqlari:

- **5 kun muddatda** tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalarini belgilangan tartibda qayta **davlat ro'yxatidan** o'tkazilishini;

- **10 kun muddatda** tegishlicha Turizm va sport vazirligining hududiy bosh boshqarmalari yurituvida bo'lgan barcha hujjatlari, o'zaro xatlovdan o'tkazish orqali mol-mulk va material zaxiralarini, moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish-topshirish ishlarini, g'azna hisob varag'larida budgetdan tashqari qoldiq mablag'larini o'tkazish ishlarini amalga oshirilishini;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalarining budget va budgetdan tashqari shaxsiy g'azna hisob-varaqlarini ochilishini, shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini belgilangan tartibda hududiy moliya organlaridan ro'yxatdan o'tkazilishi;

- qabul qilish topshirish ishlari to'liq yakunlanganidan so'ng Turizm va sport vazirligi hududiy bosh boshqarmalarini amaldagi gerbli dumaloq muhrlari va burchak shtamplari belgilangan tartibda yo'q qilinishini;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalarining faoliyatini qayta tashkil qilish ishlarini muvofiqlashtirilishini, shu jumladan qayta tashkil etilishi munosabati bilan qisqartirishga tushgan xodimlar to'g'risida ma'lumotlarni tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish markazlariga kiritilishini va ular bilan mehnat munosabatlarini amaldagi mehnat qonunchiligi talablari doirasida rasmiylashtirilishini ta'minlasinlar.

Belgilansinki, vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalarining bosh hisobchilari lavozimlariga tayinlovlar amalga oshirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining hududiy bosh boshqarma bosh hisobchilari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari faoliyatini tashkil etish ishlarini rasmiylashtirilishida;

- topshirish-qabul qilish ishlarini amalga oshirish ishlarini tashkillashtirilishi;


- Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari faoliyatini qayta tashkil etilishini hududiy moliya organlari bilan moliyaviy masalalarda muvofiqlashtirib borishda mas'ul hisoblanadilar.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir




O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining Andijon, Navoiy, Namangan va Sirdaryo viloyat bosh boshqarmalari tuzilmasi



Boshqaruvin xodimlarining umumiyligi cheklangan soni – 24 nafar, hammasi – 96 nafar.
Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatalgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi,
Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'on'a viloyatlari bosh boshqarmalari tuzilmasi**



Boshqaruvin xodimlarining umumiy cheklangan soni – 27 nafar, hammasi – 135 nafar.
Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'matilgan me'yordarga muvofiq belgilanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm viloyatlari va
Toshkent shahri bosh boshqarmalari tuzilmasi**

